

AZIZ SAID SHE'RLARIDA ISHQ TALQINI

Avazbekova Mohiraxon Ravshanbek qizi

Farg'ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek shoiri Aziz Saidning hayoti, ijodi, ijodining bir yo'nalishi bo'lgan ishq mavzusi haqida ma'lumot va tahlillar beriladi, she'rlaridan namunalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: lirik qahramon, bedil, majoz ishq, til xususiyatlari, ritm.

Badiiy adabiyotning har qanday yo'nalishi, ayniqsa, she'riyatning asosiy mavzusi ishq bo'lib kelgan. Mumtoz she'riyatimizning yorqin vakillari Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Uvaysiylardan tortib bugungi zamonaviy o'zbek she'riyatidagi ko'plab shoirlar muhabbatni goh bevosita, goh majoz vositasi bilan tarannum etmoqdalar. O'zbek nazmining zabardast vakillaridan biri Aziz Said ham ana shunday ishq kuychilaridan biridir. Shoir 1961– yil, 25–sentyabrda Dushanbe shahrida tug'ilgan. Chiltor» (1988), «Dili qani Bedilning» (1996), «G'oyibdan do'st bilan suhbatlar» (2001), «Fursat darvozasi» (2007), "Vaqt manzili" nomli kitoblari yuksak badiiyatga ega she'rlari jamlangan. She'rlari fransuz, turk, ozarbayjon, rus, bolgar, ingliz, tojik, qozoq, venger va hind tillariga tarjima qilinib, turli adabiy-badiiy jurnal va almanaxlarda chop etilgan.

Shoir mahorati va o'ziga xos ijodiy qirralarini uning birgina "Dili qani Bedilning" she'rida ko'rish mumkin. Zotan, "bedil" so'zi forschada "sevilgan", "sevilgan" ma'nolarini bersa ham, bir qarashda "be-" old qo'shimchasi "dil" so'ziga qo'shib, "dili yo'q" degan ma'no hosil qilganga o'xshaydi. She'rning sarlavhasidayoq mana shunday jumboqli va betakror jumlagi duch kelamiz.

Bir tomondan esa, ushbu sarlavha muhabbat har vaqt insonlar uchun sirli va bahsli masala bo'lib kelayotganiga ham ishora qiladi, zero har qaysi zamonda "Muhabbat bormi, yo'qmi; jismoniy istakmi yo ruhiy yuksalishmi; vaqtinchami yo abadiy?" kabi savollar qancha muhokama qilinmasin, to'la-to'kis o'z javobini topgani yo'q.

Shoir yoziqlaridan anglanishicha, oshiq bir vaqtning o'zida baxt va alam bilan siylanadi:

"Toshbaqalar misqol-misqollab

O'lchab berar baxt hamda alam".

Ijodkor fikricha, yor oshiqning qon-qoniga singib ketadi, uning ruhi ham, jismi ham faqatgina yordan iborat bo'ladi.

"Tasavvur charxfalak kosalariga

Yodingni quyarkan umrimni sog'ib" , — deydi shoir. Demakki, oshiqning umridan qaysi bo'lak olinsa ham, undan yor yodi chiqib kelaveradi.

Shoir she'rlarida nafis va shu bilan birga xalqona o'xshatishlardan mohirona foydalangan:

"Jonim simillatib keldi huqqaboz

"Yo ishqdan", irg'itdi ko'zim taroshlab..."

U xalqimiz tilidagi "yo pirim", "yo madad" kabi jummlalarni "yo ishqdan" ko'rinishida she'riga olib kirib, o'ta nozik va mantiqli badiiyat yarata olgan. Haqiqatan ham, ko'ngliga ishq uya qurgan insonning madadkori ham, sig'inuvchisi ham faqatgina ishq bo'ladi. O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov ham:

"Yolg'iz Ollohim mening, birinchi muhabbatim", — deb yozgan edi.

Shuningdek, Aziz Said she'rlarida sevgi faqatgina yorning jismi-visoliga erishishdangina iborat emas, balki ushbu tuyg'uni his qilish, unga intilib yashashning o'zi ham ulug' ne'mat sifatida tasvirlanadi: "Seva oladurman sendan-da kechib" deb yozadi shoir o'z she'rida.

Aziz Said ishq haqida yozar ekan, shunchaki oh-voh qilmaydi yoki sevgidan tortgan anduhlaridan yozg'irmaydi. U har qaysi mavzu singari sevgi bobida ham falsafiy

mushohada yuritib, salmoqli fikrlaydi. Chunonchi, shoirning "Boryapman" she'rida shunday misralar bitilgan:

Kachkulimda xiyo-nat

Tizzamgacha malo-mat

Yuragimda qiyo-mat

Yor yo-ning-ga bor-yap-man.

Ya'ni inson muhabbat yo'liga qadam qo'ydimi, albatta, xiyonat balosi ham uni har qadamda ta'qib etadi. Shoir xiyonatni kachkulida (qalandarlar yelkasiga osib yuradigan idish) olib ketayotganini aytib, o'zining qanchalik ojiz ekanini tan oladi, fikrimizcha, ana shu tan olish orqali qanchalik baquvvat ruhiyat egasi ekanligini ham ko'rsatib bergan.

She'rni davom ettirar ekan, u sevgining har qanday zamon va makon to'siqlaridan yuksakroqda ekanini ta'kidlaydi hamda muhabbat yo'liga kirgan odamning bo'ynida doim dor bo'lishini yozadi:

Vaqt pardasi yir-til-gan

G'orda noming bi-til-gan

Bo'ynimda dor ti-til-gan

Yor yo-ning-ga bor-yap-man.

Aziz Said yana bir she'rida bir-biriga ko'ngil qo'ygan ikki insonning joni bir bo'lishini aytadi:

"Ne ajab yaraldik jonimiz biru

Ikkimiz ikki".

Shu o'rinda lirik qahramon va ma'shuqa (umuman olganda, oshiq-ma'shuq) qushning qanoti kabi bir-birini to'ldirib turishiga, biri ikkinchisiz mavjud bo'la olmasligiga urg'u berib o'tadi: "Uchmoqning hikmati – qanotlar ikki..."

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, shoir ijodidagi muhabbat faqatgina ikki jinsning sevgisini emas, ishq haqiqiyini ham qamrab olgan: "Bizlarni yashirar muhabbatdan mast

Kapalak ilohiy g'orning ichiga". Uning o'zi Boborahim Mashrab ijodi bo'yicha turli ilmiy ishlar va tadqiqot olib borgani sababli ijod namunalarida ham mashrabona kayfiyatni sezish mumkin:

"Chayqalayotir ruhim,

Taxti ravon ravonmas.

Sarhush emasman, ey yor,

Ko'ksim teshgan kamon mast".

Ya'ni mastlik, rindona ishq shoirni ilhomlantirgan.

Ushbu she'rlarning til xususiyati ham o'ziga xos bo'lib, hech qayerda uchramagan metaforalar, jonlantirishlar qo'llanadi. Shoir:

"Zar gilam havoda, parvoz qilamiz

Tunning gunohkori — yurakni ushlab", misralarida yurakni tuning gunohkori deb ta'riflasa, "Uchrashdik, harorat sog'ingan qo'llarimizda, sog'inchdan suv bo'lgan bir hovuch yurak" misralarida yurakni sog'inch dardidan suvga evrilganini yozadi. Boshqa bir she'rida esa "dardlarimning qabri" degan go'zal kashfiy jumla yaratadi:

"osmonda ikki kaptar

tambur soziga o'ynang

dardlarimning qabridan

chiqayotir bu ohang

tang tang taka tum tang"

Xulosa qilib aytganda, Aziz Said ijodida ishq o'ziga xos badiiylik, yuksak fikriy teranlik, hassoslik bilan ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidov A. Dili qani Bedilning. — Toshkent: Yozuvchi, 1996.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. — 2023.
3. Xurshid Davron kutubxonasi. Aziz Said. she’rlar.
4. Umurov X. Adabiyotshunoslik nazariyasi.— Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004